

## MAHALLA BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



Yurtimizda Navro'z shukuhi kezib yurgan shu kunlarda Qo'shtepa tumanida biri-biridan go'zal binolar foydalanishga topshirilmoqda. Shulardan biri — Kichik beshkapa mahalla fuqarolar yig'ini binosidir. Mazkur maskanni foydalanishga topshirilishi mahalla ahliga chinakam bayram sovg'asi bo'ldi.

Bugun xususiy sherikchilik asosida yangi qurilgan Kichik beshkapa mahalla fuqarolar yig'ini binosining ochilish tadbiri o'tkazildi. Mahalla ahlining quvonchiga tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari ham sherik bo'ldilar.



Tadbirni tuman hokimi Ilyosbek Novikov ochib, Davlatimiz rahbari tomonidan mahalla fuqarolar yig'ini xodimlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berilayotganligiga alohida to'xtalib o'tdi. Yangi qurib foydalanishga topshirilayotgan ushbu bino bilan hudud aholisini tabrikladi.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2022-03-30 22:29:11